

Xalq ta'limi vazirligi

Andijon viloyat ta'lim boshqarmasi

**Izboskan tuman xalq ta'limi muassasalari
faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil
etish bo'limi tasarrufidagi**

2-umumta'lim maktabining

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Qo'ziyeva Surayyo Olimovnaning

ona tili fanidan

**"Gap va matn
ustida ishlash"**

mavzusidagi 1 soatlik

dars ishlanmasi

2015-2016-o'quv yili

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

Dasrning mavzusi:	Gap va matn ustida ishlash. 149-151-mashqlar
Darsning maqsadlari:	<i>Ta'limiy maqsadi:</i> O'quvchilarning gap va matn haqida olgan bilim, ko'nikma va malaka 149-151-mashqlar mustahkamlash. <i>Tarbiyaviy maqsadi:</i> O'quvchilarga oilaviy ahillik va do'stona munosabat kabi xislatlarni shakllantirish, nafosat tarbiyasini berish. <i>Rivojlantiruvchi maqsadi:</i> O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini uzviyligiga erishish, husniyat qoidalari asosida yozish malakasini rivojlantirish.
O'quv jarayonining mazmuni	O'quvchilarning gap va matn haqida olgan bilimlarini boyitish, ilg'or texnologiyalar orqali mavzuni chuqur o'zlashtirishlariga erishish. 149-151-mashqlar ustida ishlash.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	<i>Darsning metodi:</i> Tushuntirish, musobaqa, kichik guruhlarda ishlash, boshqotirmalar, "Klaster", "Baliq skeleti", "Tushunchalar tahlili" <i>Darsning jihozi:</i> Rasmlar, tarqatma materiallar, slaydlar, multimediya material, kompyuter, test savollari, ona tili darsligi <i>Nazorat:</i> Og'zaki savol-javob, saylanma diktant <i>Baholash:</i> turli nominatsiyalar orqali o'quvchilarni rag'batlantirish.
Kutilayotgan natijalar:	<i>O'qituvchi:</i> Gap va matn haqidagi bilimlarni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish, og'zaki va yozma nutqni o'stirish, adabiy til me'yorlari asosida

	soʻzlashish malakasini shakllantirish, husniyat qoidalariga rioya qilgan tartibda toʻri va chiroyli yozish koʻnikmasini shakllantirishga erishish. <i>Oʻquvchi:</i> Oʻquvchilar gap va matn haqida toʻliq tushunchaga ega boʻladi, 149-150-mashqlarni ishlash orqali ularda ijodkorlik va izlanish malakasi shakllanadi, oiladagi oʻzaro hamjihatlik va goʻzallikdan zavqlanish kabi jihatlar rivojlanadi.
<i>Kelgusi rejalari:</i>	<i>Oʻqituvchi:</i> Ilgʻor pedagogik texnologiyalarni oʻzlashtirish va boshlangʻich taʼlimda uni qoʻllashning turli yoʻllarini oʻrganish orqali oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini DTS talablariga etkazish, nazariyani amaliyotga bogʻlash yoʻllarini oʻrganish, darslarini hozirgi zamon talablari asosida tashkil etish, yangiliklar sari oʻlgʻa boorish. <i>Oʻquvchi:</i> Oʻquvchilarni 2-sinfda olgan bilim, koʻnikma va malakalari yuqori sinflarga asos boʻlishini ohgʻli anglashiga erishish, darsda olgan bilimni hayotda qoʻllay olishiga organish, bilimlarini boyitib va mustahkamlab boorish. Matn va gap haqidagi bilimlarilari bayon va insho yozishga tayyorgarlik davrini oʻtayotganini ahgʻlash.

DARS JARAYONI VA TEXNOLOGIYASI

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	1. Darsni tashkil etish. 2. Navbatchi hisoboti. 3. Dars shiori bilan tanishish. 4. Fasllar yuzasidan suhbat	Ogʻzaki tushuntirish “Klaster” metodi	5 daqiq
2-bosqich. Oʻtilgan mavzuni soʻrash	1. Daftarlarni almashtirish, olgan baholarni tahlil qilish. 2. Uyga berilgan vazifani soʻrash, savol-javob orqali oʻtilgan mavzuni esga olish. 3. Husniyat mashqini oʻtkazish	Sheʼriy mashq orqali Savol-javob Saylanma diktant yozdirish	5 daqiq
3-bosqich. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash	Oʻtilgan mavzu yuzasidan mustahkamlovchi mashqlar.	Test savollari. .	5 daqiq
4-bosqich. Yangi mavzu bayoni	1. Gap va matn haqida tushuncha berish. 2. 149-150-mashqlarni bajarish. 3. Dam olish daqiqasi.	Ogʻzaki tushuntirish “Baliq skeleti” metodi Sheʼr orqali qoʻllar mashq qildiriladi	20 daqiq
5-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash	1. Ijodiy topshiriqlar berish. .	“Tushunchalar tahlili” metodi Boshqotirma	7 daqiq
6-bosqich. Dars yakuni	1.Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish 2. Uyga vazifa berish.	Ragʻbatlantirish.	3 daqiq

MAVZU: Gap va matn ustida ishlash. 149-151-mashqlarni bajarish.

Darsning borishi.

1. Tashkiliy qism:

Salomlashish. O`quvchilar salomlashgandan keyin ona tili fani uchun sinf tanlagan shior aytiladi:

O`qiymiz, o`rganamiz

Ham chiroyli yozamiz.

Ajdodlarga munosib

Sog`lom avlod bo`lamiz.

O`quvchilar o`z joylariga o`tirib ona tili darsiga hozirlanib oladilar. O`qituvchi tomonidan o`quvchilar va sinf xonasining darsga tayyorligini nazorat qilinadi. O`quvchilarning darsga oid o`quv qurollari olinganligiga ishonch hosil qilingach, so`z navbatchiga beriladi. Navbatchi o`quvchining hisoboti tinglanadi. O`qituvchi sinf jurnaligi davomatni qayd qilgach, dars o`tishga kirishadi.

O`quvchilar bugungi darsning maqsadi va mavzusi bilan tanishtiriladi va dars sanani xattaxtaga yozish bilan boshlanadi. Sana yozilayotganda matematikaga o`zaro bog`lanadi va quyidagicha savol-javob o`tkaziladi.

O`qituvchi: Bugun nechanchi sana?

O`quvchi: Bugun 15-dekabr.

O`qituvchi: 15 soni juft sonmi yoki toq sonmi?

O`quvchi: 15 toq son son.

O`qituvchi: 15 necha xonali son?

O`quvchi: Ikki xonali.


O`quvchilarga yil fasllariga oid savollar beriladi.

O`qituvchi: Bir yilda nechta fasl bor va uning nomlarini ayting?

**O`quvchi:** Bir yilda to`rtta fasl bor, bahor, yoz, kuz, qish.

O`qituvchi: Fasllar bir-biri bilan qanday farq qiladi?

O`quvchilar bu savolga "Klaster" metodi asosida javob beradilar



2-bosqich. O‘tilgan mavzuni so‘rash.

O`qituvchi o`quvchilardan uyga berilgan vazifani so`raydi.

**O`qituvchi:** Biz o`tgan darsda ona tili fanidan qanday mavzuni o`rgandik?

**O`quvchi:** Biz o`tgan darsda ketma-ket kelgan bir xil undoshli so`zlarnibo`g`inga ko`chirishni o`rgangan edik.

O`qituvchi: Uyga qanday vazifa berilgan edi.

O`quvchi: 148-mashqni bajarib kelish edi deb javob beradi.

O`qituvchi parta oralab uy vazifalarni ko`rib chiqadi va daftarlarni almashtiradi.

Daftarlarga qo`yilgan baholar tahlil qilinadi. “5” va “4” baho olgan o`quvchilar “Ofarin” yoki “Yashang” so`zlari orqali rag`batlantirilsa, “3” va “2” baho olgan o`quvchilarga ushbu tortlik o`quvchilar tomonidan ayttirilib uyaltiriladi:

“3” baho-yu, “3” baho

Tagi bo`m-bo`sh puch baho

“2” ning yon qo`shnisi

“4” ni yomon qo`shnisi

“5” uni tanimaydi

Hatto baho demaydi,

Agarda kim olsa “3”

Yalqovlikka bo`lar duch.

So`ng daftarlarga sanani yozish topshirig`i beriladi, biror harf yozdiriladi va saylanma diktant yozdiriladi. O`qituvchi bir necha so`zni o`qiydi. O`quvchilar sh so`zlar orasidan ketma-ket kelgan bir xil undoshli so`zlarni ajratib, bo`g`in ko`cherish qoidasiga ko`ra yozadilar.

Saylanma diktant.

Kaptar, hamma, davra, avval, lola, arra, ishchan, issiq, rassom, varrak

Ham-ma, av-val, ar-ra, is-siq, ras-som, var-rak.

3-bosqich. O`tilgan mavzuni mustahkamlash

**O`qituvchi:** o`tgan darsda siz bilan ketma-ket kelgan bir xil undoshli so`zlarni bo`g`inga ajratishni, gap va matn haqida o`rgangandik. Siz bu mavzuni qay darajada o`zlashtirib olganingizni sinab ko`ramiz.

O`quvchilar uch guruhga bo`linadilar va guruhlarga test savollari taqdim qilinadi.

GURUH NOMLARI



“Qorbobo” guruhiga test savollari:

1. Gap deb nimaga aytiladi?
 - a) Gap tugallangan fikrni bildiradi.
 - b) mazmunan bog'langan gaplar yig'indisi
 - v) so'roqni bildirgan so'z
2. Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'z berilgan qatorni ko'rsating?
 - a) o'yla
 - b) tilla
 - v) paxta
3. Bo'g'inga to'g'ri ko'chirilgan so'z qaysi?
 - a) Ab-bos
 - b) Muh-ay-yo
 - v) Zunn-un

4. Soʻzlar nimalardan tashkil topadi?

- a) unlilardan
- b) boʻgʻilardan
- v) harf birikmalardan

5. Matn nimalardan tuziladi?

- a) soʻzlardan
- b) gaplardan
- v) boʻgʻinlardan

“Archa” guruhiga rasmiy test savollari

1. Qaysi rasmning nomida ketma-ket kelgan undosh bor?

a)



b)



v)



2. Berilgan qaysi sonda ketma-ket kelgan undosh mavjud?

- a) **1** b) **2** v) **3**

3. Qaysi mehnat qurolida ketma-kelgan bir xil undosh uchraydi?

a)





b)



v)




4. Berilgan qaysi matematik belgida ketma-ket kelgan undosh tovush bor?






5. Bo`g`inga to`g`ri ko`chirilgan so`z qaysi?



“Qorqiz” guruhiga savollar







4-bosqich. Yangi mavzu bayoni.

O`qituvchi doskaga bugungi mavzuni xattaxtaga yozadi va uchta guruhga “Vatan”, “Bizning oila” va “Tabiat” mavzularida matn tuzish topshirig`ini beradi.

Guruhlar tuzgan matnlarini birma-bir aytib berishadi. Matn tahlil qilinadi.


Yangi mavzu uchun tayyorlangan slayd namoyish etiladi.

149-mashq.


Yangi yil bayrami yaqinlashdi. Mumtozbek archa o`yinchoqlari yasadi..Unga singlisi Shukrona yordamlashdi.

Uy to`riga archa o`rnatildi.Bolalar archani xo`rozcha, ol- maxon, ayiqchalar bilan bezadilar. O`zlari yasagan o`yinchoqlarni ham osdilar. Archa juda chiroyli bo`ldi.





“Baliq skeleti” texnologiyasi



O`quvchilar bilan savollarga javob topiladi, javoblar xattaxta va daftarlariga yozdiriladi.

O`quvchilar mashqni yozib bo`lganlaridan so`ng, dam olish daqiqasi o`tkaziladi:

Derazamni ochaman

Toza havo kirsin deb.

Badantarbiya qilaman

Tanam kuchga to`lsin deb.

Shu joyda o`quvchilarga “Senimi, shoshmay tur” multfilmidam parcha namoyish etiladi.

150-mashq.

Archa

Mustaqillik maydoniga juda baland va chiroyli yastilgan archa o`rnatildi. Ota-onalari, opa-akalari bilan kelgan bolalar archa atrofida xursand bo`lib o`ynadilar. Jo`shqin musiqa yangrtadi. Ular Qorbobo va Qorqiz bilan raqsga tushdilar hamda ashula aytdilar.

Savollarga javobingizni yozing.

1. Juda baland va chiroyli yasatilgan archa qayerga o`rnatildi?
2. Kimlar bu yerda xursand bo`lib o`ynadilar?
3. Bolalar nima qildilar?

O`quvchilar bilan savollarga javob topiladi, javoblar xattaxta va daftarlariga yozdiriladi.

5-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “Tushunchalar tahlili” texnologiyasi asosida mashq o`tkaziladi. Buning uchun oldindan tayyorlangan varaqlar tarqatiladi .O`quvchilar topshiriqni bajaradilar.


Tushunchalar	Mazmuni
Matn	
Poytaxt	
Mustaqillik maydoni	
Jo`shqin	

O`qituvchi tomonidan texnologiya natijalandi. Yangi mavzu xulosalanadi.

Boshqotirma

“Archa” boshqotirmasi

1. Onalar qo`shig`i...
2. Qishda bolalar uchadi...
3. Mehnat quroli...



“Gap” boshqotirmasi



1. Gul solinadigan idish...
2. Otaning opasi yoki singlisi...
3. Ipak qurti mahsuloti...

“Matn” boshqotirmasi

1			M	
			A	
2			T	
		3	N	

1. Pishmagan...
2. Shirinlik turi...
3. Un mahsuloti...

6-bosqich. Dars yakuni.

Uyga 151-mashq beriladi. Mashqning sharti o`qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Balan(d), ch(i)royli, sha(h)ar, olma(x)on, sov(u)q, ya(x)malak, xursan(d), op(p)oq, jo`shq(i)n.

Dars davomida faol qatnashgan guruh va o`quvchilarni rag`batlantirish.”Eng bilimdon o`quvchi”, “Zukko o`quvchi”, “Tirishqoq o`quvchi”, “Eng iqtidorli”, “Eng dono”,”Tashkilotchi o`quvchi” kabi nominatsiyalar taqdimotini o`tkazish. O`quvchilarning kundalik daftarlariga olgan baholarini qo`yib berish. Darsga yakun yasash va o`quvchilar bilan xayrlashish.

Xulosa

Men ona tili fanidan 2-sinflarga “Gap va matn ustida ishlash” mavzusuni 149-151-mashqlar orqali mustahkamlovchi noan’anaviy usulda bir soatlik dars ishlanmasini tayyorladim va shu asosda dars o’tdim. Dars o’tish davomida o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqlarini o’stirish, BKM larini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishga harakat qildim. Darsning tashkiliy qismida “Klaster”, o’tilgan mavzuni so’rash bosqichida “Darajali testlar”, o’tilgan mavzuni mustahkamlash bosqichida “Saylanma diktant”, yangi mavzu bayonida “Internet ma’lumoti”, yangi mavzuni mustahkamlashda “Tushunchalar tahlili” va “Boshqotirma” lardan unumli foydalanishga erishdim. Dam olish daqiqasida yangi yil arafasi mavzusi bo’lgani bois, bolalarning sevimli “Senimi, shoshmay tur” multfilmining aynan archa bezatilishi va yangi yilni nishonlash qismi namoyish etildi. Dars davomida AKT dan o’rinli foydalandim. Tayyorlangan slaydlar, didaktik materiallar va internet ma’lumotlar o’quvchilarni darsni yaxshi o’zlashtirishlariga yordam berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” I.A.Karimov. “Ma’naviyat” nashriyoti.Toshkent-2008
2. Ona tili darsligi 2-sinf . K. Qosimova, S.Fuzailova, A.Ne’matov Toshkent-2012
3. Boshlang‘ich ta’lim. 2012 yil 5-son.
4. Matematika darsligi 2-sinf. N. Abdurahmonova, L.O`rinboyeva “O`zbekiston” NMIU Toshkent-2012
5. Boshlang`ich ta`limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.O`qituvchi kitobi.”Tafakkur nashriyoti”. Toshkent-2012
6. Diktantlar to`plami.
7. “G`uncha” jurnali. 2011-yil 5-son.
8. [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).